
“Soliqchi - ko’makchi” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan O’zbekiston tumani davlat soliq inspeksiyasi boshlig’i Fozilov Ulug’bek Egamberdievichning HISOBOTI

“Soliq va bojxona qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo’shimcha va o’zgartishlar kiritish to’g’risida”gi O’RQ-785-son Qonun bilan Soliq kodeksiga qator o’zgartirishlar kiritildi.

Aholi va tadbirkorlik sub’ektlarini har tomonlama qo’llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan mazkur qonunga asosan qator soliq imtiyozlari joriy etildi.

Xususan, chakana savdo, umumiy ovqatlanish, mehmonxona, yo’lovchi va yuk tashish, avtotransportlarni ta’mirlash kabi xizmat ko’rsatish sohasida faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar uchun 2022 yil 1 apreldan 2025 yildan 1 yanvarga qadar **ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz** (amalda 12%) etib belgilandi.

Shuningdek, charm, mo’yna xom ashyosi va junni qayta tayyorlash, qoramolni avtomatashtirilgan tarzda so’yish, jun, qorako’l va sun’iy charmdan buyumlar, charmattorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug’ullanuvchi soliq to’lovchilar 2023 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvargacha **foyda, aylanmadan olinadigan va mol-mulk solig’ini to’lashdan ozod qilindi.**

Albatta, berilayotgan soliq imtiyozlari tadbirkorlik sub’ektlariga qo’shimcha imkoniyatlar yaratadi, sohani rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Shu o’rinda tadbirkorlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash maqsadida **“Soliqchi-ko’makchi”** tamoyili asosida **O’zbekiston tumani davlat soliq inspeksiyasi** xodimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarga to’xtalib o’tmoqchiman.

Ayni paytda muntazam ravishda tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilmoqda, muammolar o’rganilib ijobiy hal etish choralar ko’rilmoxda. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim bo’lgan qator yo’nalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar ko’rsatilmoqda.

Xususan, 2022 yil iyul oyi davomida O’zbekiston tumani DSI tomonidan **860 ta** tadbirkorlik sub’ektlarini qiynayotgan muammolari o’rganildi. Mazkur jarayon davomida ko’maklashish zarur bo’lgan **30 ta** tadbirkorlik sub’ektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo’llash tartibini tushuntirish, ortiqcha QQS to’lovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko’rsatildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlashga, soliq qonunchiligiga oid zarur yordamlarni ko’rsatishga hamisha tayyormiz.

2022-08-08 11:25:01